



INTERNETNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI

Ilmiy rahbar: **Karimova Umida**

Yuldashova Gulshan Sirojiddin qizi

SamDCTI Ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich 2501-guruh talabasi

gulshanyoldoshova6@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O'zbekistondagi internet tarmog'ining foydali va zararli tomonlari tahlil qilinadi. Aholi, xususan yoshlar o'rtasida axborot iste'moli madaniyatining yetarlicha rivojlanmaganligi, internet resurslaridan onglilik bilan foydalanish ko'nikmalarining kamligi, hamda APK fayllarni bilmasdan o'rnatish natijasida yuzaga kelayotgan axborot xavfsizligi muammolari ko'rsatib o'tiladi. Maqolada internetdan foydalanishda samaradorlik va xavfsizlik masalalari diqqatga sazovor qilinadi

Kalit so'zlar: O'zbekistonda internet tizimi, internetning ijobiy va salbiy tomonlari, internetdan foydalanish madaniyati, yoshlar va virtual olam, kiberjinoyatlar, Telegram, Instagram.

ABSTRACT: This article discusses the beneficial and harmful aspects of the Internet in Uzbekistan are analyzed. It highlights the insufficient development of information consumption culture among the population, especially among young people, the lack of conscious and responsible skills in using Internet resources, as well as information security problems arising from the unintentional installation of APK files. The article draws attention to issues of efficiency and safety in Internet use.

Keywords: Internet system in Uzbekistan, positive and negative aspects of the Internet, Internet usage culture, youth and virtual space, cybercrime, Telegram, Instagram.

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются положительные и отрицательные аспекты развития Интернета в Узбекистане. Особое внимание уделяется низкому уровню культуры потребления информации среди



населения, особенно молодежи, недостаточной цифровой грамотности и угрозам информационной безопасности, связанным с неосознанной установкой APK-файлов.

Ключевые слова: Интернет-система Узбекистана, положительные и отрицательные стороны Интернета, культура использования Интернета, молодежь и виртуальное пространство, киберпреступность, Telegram, Instagram.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda, Ushbu soha albatta rivojlanishi kerak va buni qilamiz...¹

SH.M.Mirziyoyev

Barchamizga ma'lumki, XXI asr axborot texnologiyalari asri hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini internet tarmog'isiz tasavvur etish mushkul. Internet axborot va hujjatlarning tezkor almashinuvini ta'minlovchi global kompyuter tizimi bo'lib, u insoniyat hayotiga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Manuel Castells axborotlashgan jamiyat nazariyasida internetni ijtimoiy tuzilmalarning yangi shakllanishiga sabab bo'luvchi muhim omil sifatida ta'riflaydi [4]. Shu bois internet nafaqat texnologik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida ham tahlil etilishi lozim.

Internet orqali foydalanuvchilar o'z uyidan chiqmagan holda dunyoning yetakchi kutubxonalari, ilmiy bazalari va nufuzli oliy ta'lim muassasalarining virtual ta'lim platformalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, internetdan noto'g'ri foydalanish axborot xavfsizligi, ma'naviy barqarorlik va yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Internet bu insonlarni biroz bo'lsada sog'inch hissidan xalos etadi, negaki onlayn platformalarda internet orqali suhbatlashsh, yaqin insonimizning diydorini ko'rishga muvoffaq bo'lamiz.



Mazkur tadqiqot umumilmiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarga xos metodlar asosida olib borildi. Jumladan, tahlil va sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda ilmiy manbalarni o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida internetdan foydalanish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar hamda axborot xavfsizligiga oid nazariy qarashlar o'rganildi. Shuningdek, yoshlar orasida internetdan foydalanish holatlari kuzatuv metodi orqali umumlashtirildi. Ushbu metodlar internetning ijobiy va salbiy jihatlarini xolisona baholash imkonini berdi.

Internetning ko'plab foydali jihatlarini bilan birga salbiy oqibatlarni ham namoyon qilmoqda. Shu bilan birga internet yoshlar ongiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda, ya'ni yoshlar tomonidan kun sayin axloqiy me'yorlardan ancha chetlashgan ma'lumotlarga bo'lgan talab oshib bormoqda va ular ushbu ma'lumotlarni osongina internet orqali qo'lga kiritmoqdalar, xatto ularning qurboni ham bolib qolishmoqda.

Aholida, ayniqsa, yoshlar orasida axborot iste'moli madaniyatining sustligi, internet sahifalarida yetarlicha bilimga ega emasligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda WWW (World Wide Web) yani butun dunyo internet tarmog'i bilan bog'langan bir paytda yoshlarning onlayn platfotmalarda tanishgan "do'st"lariga ishonib, turli ekstrorizm terorizim kabi turli buzg'unchi qo'poruvchi o'zlari uchun yod bo'lgan g'oyali guruharga qo'shilib qolayotganligi hech kimga sir emas. Bu jinoiy guruhlar o'z saflarini kengaytirishda internet tarmoqlaridan keng foydalanayotganligidan dalolat beradi.

Taqiqlangan kontentlar Internet tarmog'ida mavjubo'lgan taqiqlangan kontentlardan voyaga yetmaganlar tomonidan foydalanish doim axloqiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ayrim davlatlarda bunday kontentlardan foydalanish qattiq taqiqlansa, ayrim davlatlarda bunga ruxsat berilgan.

Enga nozik nuqtamiz bo'lgan Kiber jinoyatlar ham tobora avj olib bormoqda turli ishtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'zlari anglab yetmagan holada ijtimoiy jinoyatlar sodir etmoqdalar. Ulardan bir nechtasini aytib o'tadigan bo'lsak intagram messenjirida turli tuman o'zlarini qiziqtirgan "Diniy mavzudagi"



nashidlar, dini natog'ri talqin etuvchi kanalarga a'zo bolib qolayotgani ularning keng tarqalishi uchun bilmasdan, tushunib yetmasdan layk (yurakcha yani maqullash) Patpiska (obuna) bo'lish holati kuzatilmoqda.

Internetning imkoniyati chegara bilmas bo'lganidek telegram messenjirida ham turli hildagi dilni hira qiladigan kiber jinoyatlar kuzatilib turibdi. Bulardan bir nechtasini sanab o'tadigan bo'lsak APK (Andiroit Package Kit) tarjima qilganimizda android dastur paketi fayllarining turli xildagi qarindoshlar, do'stlari, sinifdoshlari yoki ota-onasi, ustozlari yaqin tomonidan yuborilgandek qilib, ularda turlim-tuman insonni o'ziga jalb qiladigan e'tiborini tortadigan sarlavhalar ostida, qiziqarli o'yinlar nomlari bilan hozirgi kunga qadar yuborilmoqda.

Habarlarni yulkash, saqlashi, o'rnatilishi, oqibatida ularning mabil qurilmalariga virus o'rnatimoqda. O'rnatilgan virus orqali ularning shaxsiy malumotlaridan foydalangan holda hisob raqamlari, bank plastic kartalaridagi moddiy pul mablag'lari yechib olinmoqda.

Guvohi bo'layotganimizdek, bugungi kunda insonlarda internet olamiga tabelik kun sayin ortib bormoqda, bu bu qaramlikning eng og'ir jihati real olamni, insoniy burchni va vazifalarni unutishdir internet tarmog'ining quli bo'lib qolishi kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, internet O'zbekistonda ta'lim, aloqa va axborot almashinuvi sohalarida muhim o'rin egallamoqda. Masofaviy ta'lim, elektron davlat xizmatlari va raqamli bank tizimlari internetning ijobiy jihatlari yaqqol namoyon etmoqda.

Biroq, natijalar shuni ham ko'rsatadiki, yoshlar orasida axborot iste'moli madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi turli salbiy holatlarga sabab bo'lmoqda. Neil Postman ta'kidlaganidek, axborot haddan tashqari ko'pligi tanqidiy fikrlash shakllanmagan sharoitda jamiyat uchun xavf tug'dirishi mumkin [5].

Xususan, ekstremistik g'oyalar, axloqqa zid kontentlar va zararli APK fayllar orqali tarqatilayotgan kiberjinoyatlar yoshlar uchun jiddiy xavf omiliga aylanmoqda. Bu holatlar internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.



Xulosa qilib aytganda, internet zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, undan oqilona va mas'uliyat bilan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar orasida raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligi ko'nikmalarini rivojlantirish orqali internetning salbiy ta'sirlarini kamaytirish mumkin. Mazkur maqola natijalari ta'lim muassasalarida internet madaniyatini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanapi marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutk, Toshkent, 2016.566.
2. Nasriddinovich. B. T. "Axborot Xavfsizligi Asoslari" Buxoro FAN VA TA'LIM" nashriyoti. 2022. 14-bet
3. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.
4. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1-6.
5. Umida, K. (2022). The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(4), 1-6.
6. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 367-369.
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_37C3B3F8E56FA16639F54C34D281C791A2E4060E.pdf
7. <https://lex.uz/ru/docs/-52268>. 14-modda